



KOREYS TILI BILIM BAHOLASH SERTIFIKATLARI VA ULARGA TAYYORLANISHNING RAQAMLASHTIRILGAN TIZIMI

Xo‘janazarova Nazira Omonjanovna,
Namangan davlat chet tillari instituti
“O‘zbek va sharq tillari” kafedrası
katta o‘qituvchisi
hujanazarovanazira@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Koreya Respublikasida xorijliklar uchun koreys tili bilim darajasini baholovchi sertifikatlar — TOPIK, SKA va KIIP tizimlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonda koreys tili ta’limi va raqamlashtirilgan o‘quv tizimining rivojlanishi, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalarining ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: TOPIK, SKA, KIIP, Sejong instituti, koreys tili, raqamlashtirish, onlayn ta’lim, sun’iy intellekt.

KIRISH QISM.

So‘nggi yillarda Janubiy Koreya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ta’limiy aloqalarning kengayishi natijasida koreys tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortmoqda. Koreys tili bilimini baholash tizimlari xorijlik fuqarolarga Koreyada o‘qish, ishlash yoki uzoq muddatli viza olish imkoniyatini beradi.¹ Shu bois, koreys tili bilimini aniqlash bo‘yicha sertifikatlar — TOPIK (Test of Proficiency in Korean), SKA (Sejong Korean Aptitude) va KIIP (Korea Immigration & Integration Program) — xalqaro miqyosda e’tirof etilgan muhim baholash tizimlari hisoblanadi.

Asosiy qism

1. TOPIK – Koreys tili bilim darajasini aniqlovchi asosiy test TOPIK
imtihoni Janubiy Koreya Ta’lim vazirligi huzuridagi Milliy Xalqaro Ta’lim Instituti (NIIED) tomonidan tashkil etilib, boshqariladi. Bu test xorijliklarning koreys tilini bilish darajasini rasmiy tarzda baholaydi va Koreyada uzoq muddatli viza olish uchun majburiy sertifikat hisoblanadi.

2023-yilda Janubiy Koreyada TOPIK imtihonida 421 812 nafar ishtirokchi qatnashgan. Imtihan o‘tkaziladigan davlatlar soni yildan-yilga ortib borayotganligi, O‘zbekistonda ham koreys tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayganini ko‘rsatadi.

[1-jadval TOPIK PBT 2024-yil imtihan uchun qabul o‘rinlari ²]

#		93-topik	94-topik	95-topik	96-topik	97-topik	jami
1.	Toshkent	4,378	4,378	5,172	4,378	4,378	22,684
2	Samarqand	1,060	1,060	528	1,060	1,060	4,768
3	Farg‘ona	2,203	2,203	1,400	2,203	2,203	10,212
4	Namangan	1,609	1,609		1,609	1,609	6,436
5	Buhoro	426	426		426	426	1,704
6	Urganch	410	410		410	410	1,640
		10,086	10,086	7,100	10,086	10,086	47,444

¹ <https://overseas.mofa.go.kr> viza uchun zaruriy hujjatlar

² topiktashkec.uz 2024-yil uchun e’lon qilingan imtihanlar jadvali bo‘yicha ma’lumot yig’ildi. 2020 -yil 29,000 ming joy ajratilgan bo‘lib, 2 yil ichida 2 barobarga ortdi.



2023-yildan boshlab IBT (Internet Based Test) shaklidagi TOPIK imtihoni joriy etilgan bo‘lib, bu raqamlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. 2024-yilda IBT TOPIK imtihoni to‘rt marotaba o‘tkazilgan va O‘zbekistonda ilk bor 2024-yil sentabr oyida 5-xalqaro IBT TOPIK imtihoni tashkil etilgan. 2025-yilda esa Koreyadan tashqari mamlakatlarda 4 marotaba PBT va 3 marotaba IBT imtihoni o‘tkazilishi rejalashtirilgan³.

Shuningdek, NIIED tomonidan uyda internet orqali TOPIK topshirish imkoniyatini yaratish yo‘lida ishlar olib borilmoqda. TOPIK tayyorgarligi uchun “TOPIK Proficiency in Korean” rasmiy saytida o‘tgan yillardagi savollar (past paper) va tayyorlov testlari (mock exam)dan foydalanish mumkin⁴.

2.SKA va ISKA – Sejong tizimidagi baholash imtihonlari Koreys tili o‘rganuvchilar sonining ortishi natijasida SKA (Sejong Korean Aptitude) va ISKA (Internet Sejong Korean Aptitude) imtihonlari sinov tariqasida o‘tkazilmoqda⁵. Ular King Sejong instituti jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, koreys tili va madaniyatini targ‘ib qilishga xizmat qiladi⁶. 2020-yilda ishga tushirilgan 온라인 세종학당 (Online Sejong Hakdang) raqamli platformasi⁷ COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta‘limga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlash uchun yaratilgan⁸. Platforma muntazam yangilanib, o‘quvchilar uchun yangi sahifalar va darsliklar bilan boyitilmoqda. Shuningdek, “손안의 세종학당 (Kaftdagi Sejong markazi)” nomli mobil ilova yordamida foydalanuvchilar istalgan joyda koreys tilini o‘rganishlari mumkin. Yuqori darajadagi o‘rganuvchilar uchun esa “세종학당 시사어휘학습” (Yangilik so‘zlarini o‘rganish) ilovasi yangilik matnlari asosida yangi leksikani o‘rgatuvchi ilovadir⁹.

3. KIIP – Koreya immigratsiya va integratsiya dasturi

KIIP (Korea Immigration & Integration Program¹⁰) dasturi Janubiy Koreya Adliya vazirligi tomonidan xorijliklarning koreys jamiyatiga ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dastur Koreyada yashayotgan va fuqarolik yoki doimiy yashash huquqini olishni istagan chet elliklar uchun mo‘ljallangan.

Hi Korea platformasi orqali dasturga ro‘yxatdan o‘tish va test topshirish amalga oshiriladi¹¹. KIIP imtihoni faqat Koreya hududida o‘tkaziladi. Tayyorlov uchun rasmiy YouTube kanallari¹², shuningdek ingliz tilidagi How to Study Korean onlayn kursi mavjud bo‘lib, u bepul darslar, lug‘atlar va audio materiallar orqali koreys tilini bosqichma-bosqich o‘rganishga yordam beradi¹³.

4. O‘zbekistonda koreys tili ta‘limining rivoji

O‘zbekiston hududida koreys tili o‘rganishga bo‘lgan talab yildan-yilga ortmoqda. YouTube’dagi “Ibrat farzandlari” kanali orqali koreys tili bo‘yicha bepul raqamli darslar taqdim etilmoqda¹⁴.

Toshkent Koreya Ta‘lim Markazi Koreya Ta‘lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib,

³ <https://www.topik.go.kr> Topik Proficiency in Korean topik imtihoni bo‘yicha platforma

⁴ <https://www.topikguide.com>

⁵ <https://ska.ksif.or.kr> 2023-yil may oyida 2chi SKA imtihoni o‘tkazildi. SKA imtihoni 2025 yilda 3 marotaba o‘tkazilishi kutilmoqda

⁶ <https://www.ksif.or.kr> King Sejong instituti 202 yil 1-aprildan ish boshlab, koreys tili va koreya madaniyatini targ‘ib qiladi.

⁷ N. O. Xo‘janazarova MEDIA SAVODXONLIK HAMDA RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA KOREYS TILI O‘QITISH // Inter education & global study. 2024. №10 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/media-savodxonlik-hamda-raqamlashtirish-muhitida-koreys-tili-o-qitish> (дата обращения: 04.11.2025).

⁸ <https://www.iksi.or.kr/> 온라인 세종학당masofaviy ta‘lim platformasi 2020-yil oktabrdan ish boshladi.

⁹ <https://play.google.com> 세종학당 시사어휘학습 2024-yilda Sejong markazi tomonidan tashkil etilgan.

¹⁰ <https://www.koreantopik.com>

¹¹ <https://www.kiip-test.org> 한국이민재단(hangukiminchedan- Koreya Immigratsiya Jamg‘armasi) sayti orqali KIIP uchun imtihonga qabul va imtihon natijasini yuklash mumkin.

¹² https://youtu.be/Aw_Twf5_x7o?si=LzYS9qEMqTY7iCiO, 법무부사회통합프로그램-Adliya vazirligining Jamiyatga Integratsiya Dasturi, <https://youtu.be/rMhiFtrsPBE?si=j7QRuwua7r0AeuYP> KIIP study

¹³ <https://grantgo.uz/grant> 2024 yil noyabr oyida tashkil etilib, ushbu platforma bepl, ammo darsliklar pullik.

¹⁴ @ibratfarzandlari “Ibrat farzandlari” loyihasi 2022-yilda Rustam Qoriyev chet tillarini o‘rganishga qiziquvchi yoshlarni birlashtirish maqsadida xorijiy tillarni bepul o‘rgatuvchi platformani yaratgan.



O‘zbekiston, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida koreys tili va madaniyatini yoyish, TOPIK imtihonlarini o‘tkazish, hamkorlikdagi ta’lim loyihalarini rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. Markaz o‘quvchilar uchun onlayn Zoom darslarini tashkil etadi, o‘qituvchilar uchun esa TOPIK tayyorlov va malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘ygan¹⁵.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Koreya elchixonasi hamda Koreya Ta’lim markazi hamkorligida umumta’lim ustozlari uchun kasbiy qayta tayyorlash loyihasi amalga oshirilmoqda. Dastur koreys tili bo‘yicha bakalavr diplomiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni onlayn va qisman oflayn shaklda qayta tayyorlashni nazarda tutadi¹⁶.

5. Raqamlashtirilgan o‘quv platformalar va sun‘iy intellekt asosidagi vositalar

Koreys tilini o‘rganishda bugungi kunda ko‘plab raqamli resurslar mavjud: Talk to Me in Korean¹⁷, Duolingo, Memrise, Lingodeer, HelloTalk, Sejong Hakdang, AI Chatbot¹⁸ va boshqalar. Bu platformalar foydalanuvchilarga lug‘at, grammatika, talaffuz hamda suhbat ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi natijasida til o‘rganish jarayoni sezilarli darajada yengillashdi.

Masalan, chat-botlar, avtomatik talaffuz tahlili va avtomatik tarjima tizimlari (Google Translate, Papago, Naver Dictionary, ChatGPT) o‘quvchilarga individual tahlil va fikr-mulohazalar beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, SI texnologiyalari talaffuzni tuzatish, grammatika xatolarini aniqlash va interaktiv o‘quv tajribasini yaratishda samarali vosita hisoblanadi (Li, 2020). Musayev, A. S. (2023)ning ta’kidlashicha Virtual haqiqat texnologiyasidan foydalangan holda, talabalar turli joylarni o‘rganish va turli madaniyatlar va muhitlar haqida bilish uchun virtual sayohat qilishlari mumkin¹⁹. Darxaqiqat, 메타버스 dasturi orqali Koreyaning milliy muzeylariga avatar orqali sayoxat qilish va tarixiy buyumlarni ko‘rish mumkin²⁰. Chet elliklar uchun esa corona 19 davrida Busan chet tillar instituti BUFS tomonidan online metaserviz darslari yo‘lga qo‘yildi²¹.

Woo In-hye(1999) o‘z tadqiqotida veb saytlardan foydalanish orqali nafaqat til ko‘nikmalarini balki til o‘rganishda ajralmas qism bo‘lib qolgan madaniyatni o‘rganishda ustivor hisoblanadi. Koreys zamonaviy qo‘shiqlari K-POP, K-drama, kores xalq ertaklari, koreys xalqining qadriyatlarini, taomlari, xalq o‘yinlari kabi kontentlar orqali koreys tilini o‘qitish metodikasini tavsiya etdi²².

YouTube platformasida ham koreys tili bo‘yicha turli darajadagi darslar joylashtirilgan bo‘lib, o‘rganuvchilar Zoom yoki Google Meet orqali jonli muloqot darslariga qatnashib, boshqa davlat o‘quvchilari bilan madaniy almashinuv olib borishlari mumkin.

Xulosa

Koreys tili bilimini baholash tizimlari — TOPIK, SKA, KIIP — xorijliklarning koreys tilidagi bilim darajasini aniqlash va ularning Koreya jamiyatiga integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi. Raqamlashtirish jarayoni, sun‘iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi va onlayn o‘quv platformalarining rivojlanishi koreys tilini o‘rganishni yanada qulay va samarali qildi. O‘zbekistonda koreys tili o‘qitilishining kengayishi esa ikki davlat o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni mustahkamlab, raqamli ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. N. O. Xo‘janazarova MEDIA SAVODXONLIK HAMDA RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA KOREYS

¹⁵ <https://tashkec.uz> “Koreya ta’lim markazi” 1992 yil 27-mayda tashkil etilgan hamda koreys tili va madaniyatini targ‘ib qiladi.

¹⁶ <https://padlet.com>

¹⁷ <https://www.talktomeinkorean.com>

¹⁸ <https://ai.masterkorea.com>

¹⁹ Musayev, A. S. (2023). Raqamli ta’lim muhitida talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etishning dolzarbligi. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar / Education and Innovative Research, (5), 186.

²⁰ <https://www.museum.go.kr>

²¹ <https://www.buufs.ac.kr>

²² 우인혜(1999). 한국어 교재의 효율적 개발 방향. 한국어 교육, 10(2), 95-110page.



- TILI O‘QITISH // Inter education & global study. 2024. №10 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/media-savodxonlik-hamda-raqamlashtirish-muhitida-koreys-tili-o-qitish> (дата обращения: 04.11.2025).
2. Musayev, A. S. (2023). Raqamli ta’lim muhitida talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etishning dolzarbligi. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar / Education and Innovative Research, (5), 186.
3. 우인혜(1999) . 한국어 교재의 효율적 개발 방향. 한국어교육, 10(2), 95-110page.
- ?? Aslonov, S. S. (2020). O‘zbek Va Ingliz Tilida Jins Mazmunini Bildiruvchi So‘zlar Tahlili. Студенческий вестник, (16-10), 55-58.
- ?? Shahram, A., Umida, K., & Zarina, R. (2020). Information technology's role in the study of foreign languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(3), 183-185.
- ?? Shahram, A. (2025, December). AFGHAN-AMERICAN DIASPORA LITERATURE AND ITS DISTINCTIVE CHARACTERISTICS (BASED ON THE WORKS OF KHALED HOSSEINI). In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 9, pp. 701-704).
- ?? Sharofiddinovich, S. M. THE YOUTH“ S TRIBUNE ЁШЛАР МИНБАРИ.
- ?? Салоксиддинов, М. (2020). Перевод синтаксических единиц, представляющих состояние времени, с английского на узбекский. Иностранная филология: язык, литература, образование.–2020, 1(74), 164-168.
9. Saloxiddinov, M. (2023). THE HISTORY OF LINGUISTIC TYPOLOGY. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 3), 118-120.

INTERNET MANBALAR:

1. <https://overseas.mofa.go.kr>
2. <https://topiktashkec.uz>
3. <https://www.topik.go.kr>
4. <https://ska.ksif.or.kr>
5. <https://www.ksif.or.kr>
6. <https://www.iksi.or.kr>
7. <https://play.google.com>
8. <https://www.koreantopik.com>
9. <https://www.kiiptest.org>
10. <https://youtu.be>
11. <https://grantgo.uz>
12. @ibratfarzandlari
13. <https://tashkec.uz>
14. <https://padlet.com>
15. <https://www.talktomeinkorean.com>
16. <https://ai.masterkorea.com>
17. <https://www.museum.go.kr>
18. <https://www.buufs.ac.kr>